

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Farg'ona viloyat
statistika boshqarmasi

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
2015,7 mlrd. so'm

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **6,2 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –
53,9 %

Norasmiy sektor ulushi –
39,9 %



Yirik pudrat
tashkilotlari

- hajmi - **124,1**
mlrd.so'm
- o'sish surati - **75,1 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar

- hajmi - **1087,1**
mlrd.so'm
- o'sish surati - **117,6 %**

Norasmiy sektor


- hajmi - **804,6**
mlrd.so'm
- o'sish surati - **104,1 %**

Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **2015,8** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,3 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **124,1** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,2 %** hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,1 %** ni tashkil etdi. Kichik korhona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **53,9 %** i yoki **1087,1** mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,6 %** tashkil etdi, norasmiy sektorda esa **39,9 %** yoki **804,6** mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,1 %** ni tashkli etdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **79,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,7 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jami hajmning **6,7 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **86,1 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami hajmning **14,1 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **153,0 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (*jami hajmdagi ulushi %*)



Binolar va
inshoatlarni
qurish bo'yicha
qurilish ishlari

Fuqarolik
qurilishi
ob'ektlarini
qurish bo'yicha
qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilga
n qurilish ishlari

79,3 %


9,5 %

11,2 %

2017 y




Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (*mlrd.so'm*)



Qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (%)




Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so 'mda)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi. Ushbu hududda ob'ektlar o'tgan yilga nisbatan ko'payganligi va norasmiy sektor ulushi ortganligi sababli ushbu hududda qurilish ishlari hajmi **395,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Huddi shu ko'rstagich Qo'qon shahrida esa **209,7** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (*foiz hisobida*)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori bajargan shahar tumanlar jumladan: Oltiariq tumanida **154,0 %** ni Qo'shtepa tumanida **140,2 %** ni Buvayda tumanida **119,0 %** ni Farg'ona tumanida **146,9 %** ni Toshloq tumanida **106,3 %** ni hamda Furqat tumanlarida **151,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmini keskin oshishiga yanvar-sentyabr oylarida qurilish obyektlari soni oshganligi va jismoniy shaxslar tomonidan noturar (maishiy, umumiyl ovqatlanish, savdo va boshqalar) ob'ektlar qurilishini ko'payganligi sabab bo'ldi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **6,2 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, "Qo'qon neft gaz parmalash" korxonasi tomonidan bajarilgan va jami qurilish ishlari hajmining **29,0 %** ni tashkil etdi.

Hududda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **53,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **39,9 %** i to'g'ri keladi.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov

Aloqa telefoni: (0373)241-72-75